

Maktablar bilan hamkorlik

Bugun, 15-yanvar kuni "Geodeziya va geoinformatika" kafedrasini professor-o'qituvchilari O.Ro'ziqu洛ova, S.Xikmatullaev, A.Jo'raevlar tomonidan Toshkent shahridagi 150-maktabda Geografiya fanidan "O'zbekiston orografiyasi" mavzusida ochiq dars tashkil qilindi. Ochiq ma'ruzani maktab direktori Aripova Komila Karimovna olib berib, o'zlari ham dars so'ngigacha bolalar bilan teng-a-teng savollar javobini qidirib, tingladilar. Dars boshlanishida dots. O.Ro'ziqu洛ova 2021-yil nomini o'quvchilarda so'radi. Ular bir ovozdar "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligi" yili deb javob berdilar. So'ngra sizlar qaysi kasb egasi bo'lasiz degan savolga o'quvchilar: shifokor, ustoz, quruvchi, usta, hunarmand kabi javoblarni berdilar. So'ngra kasb tanlashda o'quvchini qobiliyati va qiziqishi asosiy hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlandi. Maqsadni aniq qilib, maqsad sari dadil harakat qilish lozimligi bo'yicha maslahatlar berildi.

Dars davomida kafedra ustozlari tomonidan o'quvchilar orasida qiziqarli savol-javoblar o'tkazildi.



G'olib o'quvchilarga karta va atlaslar sovg'a qilindi. Bundan tashqari, assistent o'qituvchi A.Jo'raev tomonidan Yer resurslarini boshqarish fakuteti faoliyati yuzasidan ma'lumot berilib, bukletlar barcha o'quvchilarga topshirildi. Unda fakultet faoliyati va ta'lim yo'naliishlari batafsil yoritilgan. Yuqori sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirish maqsadida institutimizda mavjud bakalavriat ta'lim yo'naliishlari hamda magistratura mutaxassisliklari to'g'risida ma'lumotlar berildi. O'quvchilarda Toshkent relefli-landshaftli globusi katta taassurot qoldirdi. Dars so'ngida o'quvchilar o'zlarini qiziqirgan savollarga javoblar oldilar.



Yig'ilish so'ngida o'quvchilar va maktab rahbari "Geodeziya va geoinformatika" kafedrasini ustozlarini o'quvchilar bilan o'tkazgan ochiq darslari uchun minnatdorlik bildirib, kelasi safar bitiruvchi sinflar bilan uchrashuvga taklif qildilar. Kafedra o'qituvchisi S.Xikmatullaev geografiya fanidan sinflararo qiziqarli bellashuvlar tashkil etishni va musobaqaga xakam sifatida qatnashish taklifini kiritdi. Dots. O.Ro'ziqu洛ova o'quvchilarini "Yosh o'Ikashunos" to'garagiga darsdan so'ng taklif qildi. O'quvchilar tomonidan bu taklif xursandchilik bilan kutib olindi. Geografiya o'qituvchisi Normuxammedova Shaxnoza Xusnitdinovnaga bolalar bilan ishslashda pedagogik texnologiyalar bo'yicha maslahatlar berildi. Yunusobod tumanidagi 150-maktab va TIQXMMI o'rtasida imzolangan shartnomaga ko'ra, maktab o'quvchilarini bilan rejali aloqalar davom ettiriladi. Institut Pedagogika kafedrasini professor-o'qituvchilarini tomonidan 150-maktabni 5 nafar o'qituvchilarini pedagogik mahorat darslarida masofadan malaka oshirdilar.



TIQXMMI matbuot xizmati